UMUM TA'LIM FANLARINI INTEGRATSIYALASH, MUAMMO VA YECHIMLAR

Pardayeva Dilafro'z Shoyimovna – Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Bugungi kunda umumta'lim fanlarini integratsiyalash haqida bir qancha isglar olib borilmoqda.Bu tushuncha fanlarning uyg'unligi va o'qitishda qulaylikni ta'minlashga doir hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki fanlar o'rtasidagi integratsiyalashuv o'quvchilarning bilim olishlarining yaxshilanishiga va ta'lim sifatining oshishiga olib keladi. Ammo shu o'rinda bu tizimga o'tishda ham ta'lim tizimida bir qancha muammolar mavjud. Shunday ekan umumta'lim fanlarining integratsiyalashuvi hozirgi davr sharoitiga javob beradimi? Fanlar integratsiyalashuvini qanday tashkil qilish kerak? Tashkil qilishda yuzaga keladigan muammolar? Fanlar integratsiyalashuvining ijobiy natijalari qanday bo'ladi? va shu kabi savollar hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: umumta'lim fanlari, fanlar integratsiyalashuvi, ta'lim tizimi. Fanlarning bugungi kundagi rivojlanish darajasida ijtimoiy,tabiiy fanlar hamda texnik bilimlarning integratsiyalashuvi ifodalangan. Shu o'rinda ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi mutaxasislar oldiga bir qancha talablarni qo'yadi. Bu degani bir biriga yondosh sohalarda egallanayotgan bilimlar va ularda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilishda har tomonlama yaqinlik holatlari ortib bormoqda.Umumta'lim fanlarini integratsiyalash ta'lim tizimi uchun juda muhim va dolzarbdir.

Zamonaviy ta'lim tizimida integratsiyalashuvning faollashishi fanlar orasida katta uyg'unlikni ,o'quvchilar o'rtasida turli kreativ g'oyalarning shakllanishini, yanada sifatli ta'limni yuzaga keltirishga sabab bo'ladi. Integratsiya – bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Bugungi kunda integratsiyalashuvning oshishi ayni vaqtda ta'lim sohasida bir qancha o'sishni yuzaga keltiradi. Ta'lim tizimida integratsiyalashuvni oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchi amalga oshiradi. Shu o'rinda bolalarda integratsiyalashuvni boshlang'ich sinflik paytlaridan rivojlantirish talab qilinadi. Nega? – deyilganda. Boladagi qiziqishlar, uning tabiati, undagi is'tedodlarga qarab o'z kuchi va imkoniyatlari darajasida ma'lum bir sohaga yo'naltiriladi. Tajribali didaktik Yan Amos Komenskiy aytishicha; " Bir – biri bilan bo'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlar doirasidagi integratsiyalashuv haqidagi g'oyalar bir qancha davrlar davomida ilgari surib kelinmoqda. Bu g'oyaga o'z fikrini bildirgan holda Pestaloski ham "Bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfli ekanini " ta'kidlab o'tadi. Bu fikrlarga asoslangan holda chet davlatlarda o'quvchilarni o'qitish uchun bir qancha fanlar tashkil

qilingan. Ulardan biri Chexloviyada bir qancha fanlarni umumlashtirgan "Fuqaro tarbiyasi" deb nomlangan kurs katta sinflar uchun kiritilgan. Integratsiyalashgan darslar interaktiv ta'lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi.

Ko‘rgazmali ta'lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik qo‘zg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Shu o‘rinda hamma narsaning ijobiy va salbiy jihatlari bo‘lgani kabi integratsiyalashuv jarayonida ham bir qancha muammolar mavjud. Y.M. Koleginv O.L. Aleksenko integratsiyaning salbiy omillarini ko‘rsatib beradilar: o‘quv fanlarining chegaralangan soni- olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko‘rinishini ifodalayotganini, juda muhim bo‘lgan o‘qish, yozish, sanoq ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi va yana bir qancha muammolarni aytib o‘tadi. Fanlar integratsiyalashuvining ijobiy natijalari bir- biriga uyg‘un fanlardan olinayotgan bilimlarning sifatliligiga, ta'lim tizimining takomillashishiga va o‘quvchilarning hohish istaklaridan kelib chiqgan holda ma'lum sohada bilim olishlarini ta'minlaydi. Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Integratsiyalashgan darslar interaktiv ta'lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta'lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik qo‘zg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi,

nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidag va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Fikrlarni umumlashtirgan holda umumta’lim fanlarini integratsiyalash qanchalik tez olib borilsa, o‘quvchilarda bir - biriga uyg‘un bilimlarni ya’niki nazariy va amaliy bilimlarni shunchalik ko‘p rivojlanishiga olib keladi. Integratsiyalashgan darslarda ta’lim olayotgan shaxslarning fikrlarini kengroq rivojlanishi so‘zlashuvda muloqotning oshishiga, hayotiy va ilmiy bilimdan olingan ma’lumotni xulosalari orqali ravon bayon etishga, taqqoslash faoliyatining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.

2. https://lex.uz/acts/-3107036https://lex.uz/acts/-3107036

3. ZiyoNet.uz